

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

JAMIYATDA IJTIMOY ZIDDIYATLARNING AKSIOLOGIK ASOSLARI

Yesenkulova Nafisa

Renessans ta'lim universiteti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: yesenkulovanafisa@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-4869-2543>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlarning aksiologik asoslari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Ijtimoiy ziddiyatlarning vujudga kelishida qadriyatlar tizimi, identiklik, ma'naviy mezonlar va ijtimoiy manfaatlarning o'zni yoritilgan. Globallashuv, axborotlashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy munosabatlarga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, adolat, erkinlik, tenglik, bag'rikenglik va inson qadr-qimmatini kabi universal qadriyatlarning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijasida ijtimoiy ziddiyatlarning aksariyati chuqur aksiologik omillar bilan bog'liqligi hamda umumiy qadriyatlar maydonini shakllantirish jamiyat barqarorligini mustahkamlashning muhim sharti ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ziddiyat, aksiologiya, qadriyatlar, ijtimoiy barqarorlik, identiklik, globallashuv, axborotlashgan jamiyat, tolerantlik, ijtimoiy xavfsizlik, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy falsafa, fuqarolik birdamligi.

АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНЫХ КОНФЛИКТОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Есенкулова Нафиса

Университет образования «Ренессанс», независимый исследователь.

Аннотация.

В данной статье с социально-философских позиций анализируются аксиологические основы социальных конфликтов в современном обществе. Раскрывается роль системы ценностей, идентичности, духовно-нравственных ориентиров и социальных интересов в возникновении социальных противоречий. Показано влияние процессов глобализации, информатизации и цифровизации на трансформацию ценностей и развитие общественных отношений. Обосновано значение таких универсальных ценностей, как справедливость, свобода, равенство, толерантность и человеческое достоинство в обеспечении социальной стабильности. В результате исследования установлено, что большинство социальных конфликтов обусловлено глубинными аксиологическими факторами, а формирование общего ценностного пространства является важным условием укрепления общественной стабильности.

Ключевые слова: социальный конфликт, аксиология, ценности, социальная стабильность, идентичность, глобализация, информационное общество, толерантность, социальная безопасность, духовные ценности, социальная философия, гражданская солидарность.

THE GLOBAL PROVISION OF FORMING A NON-STRINGING ATTITUDE TO EXTREMISM

Yesenkulova Nafisa

Renaissance Education University, Independent Researcher.

Abstract.

This article analyzes the axiological foundations of social conflicts in modern society from a socio-philosophical perspective. It examines the role of value systems, identity, spiritual and moral orientations, and social interests in the emergence of social contradictions. The study reveals the impact of globalization, informatization, and digitalization processes on the transformation of values and the development of social relations. Particular attention is paid to the significance of universal values such as justice, freedom, equality, tolerance, and human dignity in ensuring social stability. The findings demonstrate that most social conflicts are rooted in deep axiological factors, while the formation of a common value framework serves as an essential condition for strengthening social cohesion and societal stability.

Keywords: social conflict, axiology, values, social stability, identity, globalization, information society, tolerance, social security, spiritual values, social philosophy, civic solidarity.

Kirish. XXI asrda globallashuv, raqamlashtirish, migratsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi natijasida jamiyatda turli ko'rinishdagi ijtimoiy ziddiyatlar soni va ko'lami ortib bormoqda. Ijtimoiy ziddiyatlar jamiyat taraqqiyotining tabiiy tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishi bilan birga, ayrim

hollarda ijtimoiy beqarorlik, ma'naviy inqiroz, ijtimoiy tabaqalanish va xavfsizlikka tahdidlarning kuchayishiga ham sabab bo'lmoqda. Shu jihatdan ijtimoiy ziddiyatlarning nafaqat iqtisodiy, siyosiy yoki huquqiy omillarini, balki ularning qadriyatlar tizimi bilan bog'liq aksiologik asoslarini o'rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy ziddiyatlarning shakllanishi va rivojlanishida jamiyat a'zolarining qadriyatlari, manfaatlari, maqsadlari va dunyoqarashlari muhim o'rin tutadi. Qadriyatlar tizimidagi tafovutlar, ma'naviy ideallarning o'zgarishi, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ko'pincha ijtimoiy keskinliklarning kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyat sharoitida turli madaniyatlar, mafkuralar va hayotiy pozitsiyalarning o'zaro to'qnashuvi yangi turdagi ijtimoiy ziddiyatlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada jamiyatda qadriyatlarga asoslangan identifikatsiya, ijtimoiy birdamlik va tolerantlik masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy ziddiyatlar muammosi R. Dahrendorf, L. Kozer, K. Marks, M. Veber kabi olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan bo'lsa, aksiologik masalalar M. Sheler, N. Hartmann, V. Vindelband va G. Rikertning ilmiy qarashlarida chuqur yoritilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa ijtimoiy ziddiyatlarning qadriyatlar transformatsiyasi, madaniy identifikatsiya va ijtimoiy xavfsizlik bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ijtimoiy ziddiyatlar muammosi ijtimoiy va falsafiy tafakkur tarixida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalaning nazariy asoslari K. Marks, M. Veber, G. Zimmel, R. Dahrendorf va L. Kozerning ilmiy qarashlarida o'z ifodasini topgan. K. Marks ijtimoiy ziddiyatlarni sinfiy manfaatlar va iqtisodiy munosabatlar bilan bog'lagan bo'lsa [1], M. Veber ziddiyatlarning siyosiy, diniy va madaniy omillarini ham tahlil qilgan [4]. L. Kozer esa ziddiyatlarni jamiyatning yangilanishi va rivojlanishiga xizmat qiluvchi funksional hodisa sifatida baholagan [2]. Zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy ziddiyatlarning iqtisodiy va siyosiy omillari bilan bir qatorda ularning qadriyatlar tizimi bilan bog'liq aksiologik jihatlar ham keng o'rganilmoqda.

Aksiologik yondashuvning nazariy asoslari M. Sheler va N. Hartmann tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular qadriyatlarni inson va jamiyat hayotining asosiy yo'naltiruvchi omili sifatida talqin qilganlar [5; 6]. Globallashuv va axborotlashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi masalalari S. Xantington, M. Kastels, J. Bodriyar va Yu. Habermas tadqiqotlarida keng yoritilgan [7; 8; 9; 10]. O'zbekistonlik olimlardan I. Saifnazarov, A. Mo'minov, Z. Davronov, D. Nurmatova va M. Turashbekova zamonaviy jamiyatda ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy barqarorlik va axborotlashuv jarayonlarining ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini tadqiq etganlar [16–20]. Biroq ijtimoiy ziddiyatlarning aynan aksiologik asoslari hamda qadriyatlar transformatsiyasining ziddiyatlar shakllanishidagi o'rni hali yetarli darajada kompleks o'rganilmagan.

Ijtimoiy ziddiyatlar insoniyat taraqqiyoti davomida jamiyat rivojlanishining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lib kelgan. Har qanday jamiyatda turli manfaatlar, ehtiyojlar, qadriyatlar va maqsadlarga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlar mavjud bo'lib, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklar muayyan ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Biroq zamonaviy davrda ijtimoiy ziddiyatlarning mazmuni va xarakteri sezilarli darajada o'zgarmoqda. Agar ilgari ijtimoiy qarama-qarshiliklarning asosiy sabablari iqtisodiy tengsizlik, siyosiy hukmronlik yoki resurslar uchun kurash bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda qadriyatlar tizimidagi tafovutlar va ma'naviy-me'yoriy qarashlarning turlicha talqin qilinishi ziddiyatlarning muhim manbalaridan biriga aylanmoqda. Shu sababli ijtimoiy ziddiyatlarni aksiologik yondashuv asosida tadqiq etish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Aksiologiya qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, inson va jamiyat hayotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy mezonlarni o'rganadi. Qadriyatlar inson faoliyatining yo'nalishini belgilaydi, uning xatti-harakatlari va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, qadriyatlar jamiyatning birligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jamiyat a'zolari tomonidan tan olinadigan umumiy qadriyatlar mavjud bo'lsa, ijtimoiy hamjihatlik va birdamlik mustahkamlanadi. Aksincha, qadriyatlar tizimidagi tafovutlar va qarama-qarshiliklar ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi [3].

K. Marks ijtimoiy ziddiyatlarni iqtisodiy munosabatlar va sinfiy manfaatlar bilan bog'lagan bo'lsa, M. Veber ziddiyatlarning siyosiy, diniy va madaniy omillariga ham e'tibor qaratgan [1]. L. Kozer esa ijtimoiy ziddiyatlarni jamiyatning yangilanishi va rivojlanishiga xizmat qiluvchi omil sifatida baholagan [2]. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarda esa ziddiyatlarning qadriyatlar bilan bog'liq jihatlar tobora ko'proq o'rganilmoqda. Chunki globallashuv va axborotlashuv jarayonlari turli madaniyatlar, diniy qarashlar va hayotiy pozitsiyalar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirib, yangi aksiologik qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasidagi munosabatlar ko'plab jamiyatlarda ijtimoiy ziddiyatlarning asosiy manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Bir tomondan, milliy madaniyat, tarixiy xotira, diniy qadriyatlar va urf-odatlarini saqlab qolishga intilish kuzatilsa, ikkinchi tomondan, globallashuv ta'sirida shakllanayotgan individualizm, iste'molchilik, erkinlik va liberal qadriyatlar keng tarqalmoqda [4]. Natijada turli avlodlar, ijtimoiy qatlamlar va madaniy guruhlar o'rtasida qadriyatlar to'qnashuvi yuzaga kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy keskinlik va beqarorlikning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida qadriyatlar bilan bog'liq ziddiyatlar yangi ko'rinishlarga ega bo'lmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlarning dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot oqimlarining haddan tashqari ko'payishi natijasida insonlar turli mafkuraviy va madaniy ta'sirlarga duch kelmoqda. Bu esa ayrim hollarda qadriyatlar inqirozi, identiklik muammolari va ma'naviy begonlashuv jarayonlarini yuzaga keltirmoqda [5]. J. Bodriyar va M. Kastels zamonaviy axborot makonida virtual reallik va tarmoq munosabatlari insonning qadriyatlar tizimini qayta shakllantirishini ta'kidlaydilar [5; 6].

Ijtimoiy ziddiyatlarning aksiologik asoslarini tahlil qilishda identiklik masalasi alohida ahamiyatga ega. Identiklik insonning o'zini muayyan ijtimoiy, madaniy, diniy yoki milliy guruhga mansub deb bilishi bilan bog'liqdir. Zamonaviy jamiyatda identiklikning turli shakllari o'rtasida yuzaga kelayotgan qarama-qarshiliklar ko'plab ziddiyatlarning manbai

bo'lib xizmat qilmoqda. Milliy va global identiklik, diniy va dunyoviy qadriyatlar, kollektiv va individual manfaatlar o'rtasidagi tafovutlar jamiyatning ma'naviy birligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [6].

Aksiologik nuqtayi nazardan qaraganda, adolat tushunchasi ham ijtimoiy ziddiyatlarning markaziy kategoriyalaridan biridir. Turli ijtimoiy guruhlarining adolat haqidagi tasavvurlari bir-biridan farq qilishi mumkin. Kimdir iqtisodiy tenglikni adolat deb bilsa, boshqalar imkoniyatlar tengligini ustuvor qadriyat sifatida qabul qiladilar. Shu sababli adolatning turlicha talqin qilinishi ko'pincha siyosiy va ijtimoiy qarama-qarshiliklarning kuchayishiga olib keladi [7]. Adolat, erkinlik va tenglik kabi universal qadriyatlar zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi, biroq ular o'rtasidagi muvozanatning buzilishi ijtimoiy keskinliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuningdek, tolerantlik va bag'rikenglik zamonaviy jamiyatning muhim aksiologik asoslaridan biri hisoblanadi. Turli etnik, diniy va madaniy guruhlarining tinch-totuv yashashi uchun o'zaro hurmat va muloqot madaniyatini rivojlantirish zarur. Yu. Habermasning kommunikativ harakat nazariyasiga ko'ra, jamiyatdagi ijtimoiy kelishuv va barqarorlik muloqot hamda o'zaro tushunish orqali ta'minlanadi [9]. Shu jihatdan, bag'rikenglik madaniyatining zaiflashuvi va radikal qarashlarning kuchayishi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuviga olib keluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ziddiyatlarning aksiologik jihatlarini bartaraf etishda ta'lim tizimi alohida ahamiyatga ega. Ta'lim insonlarda fuqarolik mas'uliyati, tolerantlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy birdamlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Ayniqsa, yoshlar orasida tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish, ma'naviy immunitetni mustahkamlash va axborot xavfsizligini ta'minlash bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki qadriyatlarga asoslangan ta'lim tizimi jamiyatda yuzaga keladigan ko'plab ziddiyatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Shunday qilib, zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy omillar, balki chuqur aksiologik sabablar bilan ham bog'liqdir. Qadriyatlar transformatsiyasi, identiklik inqirozi, madaniy xilma-xillik va globallashtirish jarayonlari ijtimoiy ziddiyatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Shu bois ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolik birdamligini mustahkamlash va ziddiyatlarning destruktiv oqibatlarini kamaytirishda umumiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlarning vujudga kelishi va rivojlanishida aksiologik omillar muhim o'rin tutadi. Globallashtirish, raqamlashtirish va axborotlashuv jarayonlari natijasida jamiyatda mavjud qadriyatlar tizimi sezilarli darajada transformatsiyaga uchramoqda. An'anaviy va zamonaviy qadriyatlar, milliy va global manfaatlar, kollektiv va individual qarashlar o'rtasidagi tafovutlar ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga zamin yaratmoqda. Shu bois ijtimoiy ziddiyatlarni faqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar bilan izohlash yetarli emas, balki ularning aksiologik asoslarini ham chuqur o'rganish zarur.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, qadriyatlar tizimidagi nomuvofiqliklar, identiklik inqirozi, ma'naviy mezonlarning zaiflashuvi va axborot makonidagi mafkuraviy qarama-qarshiliklar zamonaviy jamiyatdagi ko'plab ziddiyatlarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Adolat, erkinlik, tenglik, bag'rikenglik va inson qadr-qimmatini kabi universal qadriyatlarining turlicha talqin qilinishi ham ijtimoiy keskinliklarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiyalar va ijtimoiy tarmoqlar qadriyatlar to'qnashuvining yangi shakllarini yuzaga keltirayotgani kuzatilmog'da. Shuningdek, ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda umumiy qadriyatlar maydonini shakllantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ta'lim tizimi, oila, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari jamiyatda tolerantlik, o'zaro hurmat, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlarni qaror toptirishda muhim ijtimoiy institutlar sifatida namoyon bo'ladi. Aynan ushbu qadriyatlar ijtimoiy ziddiyatlarning destruktiv shakllarini kamaytirish va ularni konstruktiv yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Demak, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlarni samarali boshqarish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun aksiologik yondashuvdan foydalanish zarur. Jamiyatda umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash, ma'naviy madaniyatni rivojlantirish hamda konstruktiv muloqot muhitini yaratish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Marks K., Engels F. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1983.
2. Coser L. A. The Functions of Social Conflict. – New York: Free Press, 1956.
3. Dahrendorf R. Class and Class Conflict in Industrial Society. – Stanford: Stanford University Press, 1959.
4. Veber M. Xo'jalik va jamiyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
5. Scheler M. Formalism in Ethics and Non-Formal Ethics of Values. – Evanston: Northwestern University Press, 1973.
6. Hartmann N. Ethics. – London: Allen & Unwin, 1932.
7. Huntington S. P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996.
8. Baudrillard J. Simulacra and Simulation. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994.
9. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
10. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1–2. – Boston: Beacon Press, 1984–1987.
11. Durkheim E. The Division of Labor in Society. – New York: Free Press, 1997.
12. Fukuyama F. Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity. – New York: Free Press, 1995.
13. Giddens A. Modernity and Self-Identity. – Stanford: Stanford University Press, 1991.
14. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980.
15. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society. – New York: Basic Books, 1973.
16. Saifnazarov I. S. Ijtimoiy falsafa. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
17. Muminov A. K. Zamonaviy jamiyat va ma'naviy qadriyatlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
18. Davronov Z. J. Globallashtirish va ijtimoiy taraqqiyot muammolari. – Toshkent: Fan, 2019.
19. Nurmatova D. M. Axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlar transformatsiyasi. – Toshkent: Universitet, 2022.
20. Turashbekova M. R. Ijtimoiy xavfsizlik va ma'naviy barqarorlik masalalari. – Toshkent: Yangi nashr, 2023.